

DAVR TILINING LEKSIK-SEMANTIK QATLAMINI ANIQLASHDA LUG‘ATNING AHAMIYATI

D.N.Rahmatova

SamDCHTI o‘qituvchisi

Annotasiya: Behbudiy asarlarining statistik, stilistik, izohli lug‘ati davr tilining leksik-semantik qatlamini osonlik bilan guruhlashga, jadid adabiyoti til tizimida faol bo‘lgan so‘z, qo‘shimcha va yordamchi vositalarni grammatik kategoriyalar doirasida birlashtirib o‘rganishga ko‘maklashadi. Barcha ma'rifatparvar o‘zbek jadidlarining ilmiy-badiiy-publisistik merosini shu yo‘l bilan tadqiq qilish orqali til taraqqiyotining ma'lum bir davri haqida muayyan ma'lumot olish mumkin.

Kalit so‘zlar: Jadid adabiyoti, “Qasdi safar”, statistik, stilistik, okkazional, lingvopoetik, lingvokulturologik, lingvostilistik, ilmiy va publisistik asarlar.

Mamlakatimiz taraqqiyotining keyingi besh yilligida Prezident Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan Mahmudxo‘ja Behbudiy ilmiy, publisistik va badiiy merosini o‘rganishda yangi davr boshlanganligini inobatga olsak, buyuk ma'rifatparvar asarlari matnining izohli lug‘atini yaratish ham dolzarb vazifaga aylandi.

Ushbu kichik tadqiqotimiz doirasida esa ana shu jiddiy ilmiy kuzatishlarning boshlanishi sifatida ayrim mulohazalarimizni bayon etish bilan chegaralanamiz.

Maqsadni yuzaga chiqarish uchun Behbudiyning sayohatnoma janrida yozilgan “Qasdi safar” asari tanlandi. Buning uchun matning *Word* shaklidagi elektron variantini yaratish; yaratilgan elektron variantda mavjud bo‘lgan texnik kamchiliklarni bartaraf etish; so‘zshakl xarakteridagi lug‘atdan bosh so‘zlarni ajratish; yozuvchining okkazional birliklari hamda davr ruhini berishga mo‘ljallangan so‘zlarga e'tibor qaratish kabi vazifalarni amalga oshirish zarur bo‘ldi.

Asar matnida uchraydigan yangi soʻz va iboralar Yaqin Sharq mamlakatlariga qilingan ikki yillik sayohat taassurotlari, adib boʻlgan oʻlkalardagi ijtimoiy turmush, matbuot va maorif ishlari, adabiyot va sanʼat namunalari, tarixiy va madaniy boyliklar bilan tanishish jarayonida toʻplangan tajribalar mahsulidir.

Asardagi ayrim soʻzlarning izohini berishda soʻz tanlash prinsipiga rioya etildi. Bunda soʻzlarning davr tilidagi faol-nofaolliigi, asosan ruscha va rus tili orqali kirib kelgan elementlar, yozuvchining oʻzigagina xos boʻlgan okkazional birliklar inobatga olindi.

“Qasdi safar”da Yaqin Sharq mamlakatlari, Rossiya, Yevropa davlatlari, undagi shaharlarning nomlari keltirilgan. Ammo ular oʻzbek tili talaffuz meʼyorlariga mos tarzda yozilgan. Lugʻatda ana shu jihatlar ham eʼtiborga olindi: Peterburgʻ – Peterburg, Boʻsfur – Bosfor, Ispaniyo – Ispaniya, Beljik – Belgiya, Fransiya – Fransiya, Bizans – Vizantiya kabi. 1318 sanai hijriyasi tavofi Baytullohgʻa Kafkaz yoʻli ila Istanbul va Misr al-Qohira vositasi-la borib edim, muddati safarim sakkiz oydan ziyoda choʻzub edi. 1325 sanai hijriyasinda Rusiya musulmonlarining muhtaram ziyoli va akobirlarining Nijniy yarminkasinda milliy ishlar toʻgʻrisinda mashvarat qilinaturgan majlisga musharraf boʻlmoq uchun Oʻrunburgʻ yoʻli ila Maskov, Peterburgʻ, Qozon vositasi-la Nijniy Novgʻoʻroʻd borib edim.

Tanlab olingan soʻz necha maʼnoli boʻlsa, ularning barchasiga izoh berishga harakat qildik. Masalan, ikki maʼnoli soʻzlarga:

bosh – (**birinchi maʼnoda**) tananing yuqori qismida joylashgan organizm. ...*boʻyi yetti qarishlik osilgʻan va oʻlturgʻanda shiftiga bosh tegadurgon bir quti ichida 16 soat komil qimirlamay va tusholmay qoldim.*

Ikkinchi maʼnoda: Rahbarlik, korxonona, muassasa, tashkilot rahbari. *Mahmud Shavkat poshoni sadri aʼzam qildurib va Anvarbek bosh boʻlub, Galibuli tarafidan Adirna ustiga askar chiqordi.*

Frazeologik birliklar tarkibida: bosh koʻrsatmoq: *Erkak bolalargʻa bachalik hangomi oʻtub, bulugʻ alomatlari bosh koʻrsatgan zamonlargʻa kabi.*

burj – (birinchi ma'noda). Minora, qal'a, yulduzlar turkumi. *4670 sanai hijriyasig'acha shams burji hutning yarmig'a kelgani zamon navro'z e'tibor etilub va tarixi mazkurada vaziri saljuhiy mashhur Nizomulmulkning amri-la hamal boshig'a tahvil o'linubdur.*

Ikkinchi ma'noda. Qal'a devoriga tutashib, unga tirgak sifatida tashqi tomondan minora shaklida qurilgan qo'shimcha bino. *Masjidi Umar al-Foruh raziyallohu anhu 8 burjg'a bo'linub, har bir burjning orasi 26 qadamdur.*

Uch ma'noga ega bo'lgan so'zlar:

vazn – (birinchi ma'no). O'lchov, vazn, salmoq. 2. Shaxsning mavqei, mavqe darajasi. 3. She'riy satrda she'rning ritm ohangi va tuzilishini belgilovchi bo'g'inlar soni va joylashishi. (Lug'atda uch ma'noli so'zlar 15 tani tashkil etdi). Behbudiy asarlari matnida u faqat bir marta — og'irlik ma'nosida qo'llangan: *Kurrai Kamarni bayoni, jismidagi tog' soylari vazni, yerni atrofig'a aylangani.*

Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarida 175 nafar tarixiy shaxslarning nomlari keltirilgan. Ular orasida Sharq faylasuflari, Rim va Yunon donishmandlari, sahobalar, sultonlar, hukmdorlar, sarkardalar, sayyohlar, olimlar, shoir va yozuvchilar, shuningdek, adib zamondoshlari bo'lgan noshirlar, jurnalistlar, dramaturglar, pedagoglar, jadidlar va Chor Rossiyasi davlat arboblari, xonlar, amirlar va ularning a'yonlari nomlari keltirilgan. Ular haqida ham imkon qadar izoh berildi. Bunda adibning "Tanlangan asarlar"i oxirida berilgan lug'atdan ham foydalanildi. Masalan,

D.I.Logofet – rus sharqshunos olimi: *Logofet janoblarining "Buxoro xonlig'i" nom ruscha kitobinda Turkistonda mavjud turk-o'zbek qabilalarini te'dod etibdurki, "sart" qabilasi yo'qdur.*

Tevkelev – Rossiya Davlat dumasi deputati, musulmon fraksiyasi faollaridan biri: *Bul asnoda Peterburg'da bo'lguchi Milliy majlis mashvaratiga bormoq uchun Duma vakili janobi Tafkilufdan taklif tiligrofi ila savolnomalar keldi.*

Tabolin – Turkiston Sovet avtonom respublikasi hukumat va partiya boshlig'i: *Tobolin afandi bu so'zlarg'a ahamiyat bergandek ko'rundi.*

Toshpo'lat Xalilov – samarqandlik Rossiya Davlat Dumasi deputati, adibning qadrdoni. *Va Turkiston vakillaridin yolg'uz Samarqand vakili Toshfo 'lod Xalilov yer solig'ini ozaymog'i xususida birgina martaba so'ylab edi.*

Farhodov – Farhoduv, 1907-1914 yillarda Rossiyaning Hijozdagi konsulxonasi xodimi, Afg'onistondagi Rossiya harbiy gospitali shifokori. ...*hakim va do'xtur bo'lgan Mirzo Abdurahmon Farhodov to'ra janoblari yana bizni shahar Samarqand ahlidindurki, besh-olti sanadan beri rus va afg'on hududidagi Pattakesar qal'asindagi askarlarimiz tabobatig'a ma'mur va anda harbiy do'xtur va tabib va jarrohlik va ko'z tarbiyatig'a nihoyat mahoratlik hamda mutavoze' va yaxshi xulq sohibligi va Rusiya vatandoshlarimiz orasinda shoe'dur.*

Atoqli otlarning lug'atda berilishi ham inobatga olindi. Masalan, izohli lug'atni shakllantirishda kompyuter so'zning ot yoki sifat so'z turkumiga ega ekanligini farqlamaydi. Izohli lug'atda ular farqlangan holda berilishi kerak: *Samarqand ulamolarini birinchilarindan ma'dud bo'lguvchi Mullo **Odil** Mullo Mansur o'g'lini kandidatlikg'a ittifoq va yakzabon ila sayladilar. Suyukli va **odil** podshohimizni muharrar va ta'mim etgan marhamatlaridin biz tabiiy sahmimizni oz bo'lishig'a qanoat kilmoqimiz, kadr ne'matni bilganimiz va ham kufroni ne'mat hisoblanadur.*

Shuningdek, Munavvar, Musavvar, Bibi, Xoliq, Akbar, Amir, Anbar, Yodgor, Yeldirim kabi nomlarning ma'nolari qayd etildi. Mahmudxo'ja Behbudiy bu kabi so'zlari atoqli otlar sifatida emas, biror narsani sifatlash, ulug'lash, maqtash, eslash ma'nolarida ham qo'llagan. ... *hikmiyai zamoniylar ila muzayyan va mutaassif edarlar, borgoh va nashminlari minglar ila kutubi nafisa ila **munavvar** edi. Agarda sayohatdan eson qaytsaq, sayohatnomamiz muttasil va **musavvar** bosilib chiqsa kerak kabi.*

Asar matnidagi **aflisun, limo', vo'da, javharlimu, kanfet** kabi oziq-ovqat mahsulotlari nomlari bilan bog'liq so'zlarning izohi zarur. *Ba'zan tog' oralarindagi ochiq yerlarga anor, uzum, anjir, limo', afliso'n, zaytun va boshqa mevalar va bo'stonlari ko'rulur. 2 iyunda Bokudan chiqib, Mineralni*

vo'da (Ma'dan suvlari) maxattasig'a mutavajjih bo'ldikim, orasi 755 chaqirim bo'lub, bir kecha-kunduz yuruldi.

Mahmudxo'ja Bebudiy asarlari leksik qatlamiga kiruvchi Samarqand shahri va uning atrofi aholisi shevalariga xos bo'lgan, *noxun, kunj, kalush, otashgirak, olacha* kabi so'zlar izohi ham berildi. *Dasti siyosat becash va beshikanash, Ham chuni andar bin noxun zilash. Man kalushni chiqorib, etik ila haramga kirdimki, orqamdan o'n qadar arab bolalari ergashib, bezor etdilar.*

Ruscha va rus tili orqali lug'at tarkibiga kiritilgan do'xtur, istansa, katolik, instektur, gimnaziyo, gramafun, imperato'r kabi so'zlar izohtalab, *Do'xtur, uy, no'mra va qora uy, xulosa, har shay mavjuddur. Taajjubi shulki, mavqiflar (istansalar) atrofida alardan savdo qilaturgan erkak-ayol va bola ko'runmaydur. 200 ming qadar xalqi bo'lub, 170 ming muslim va baqiyasi rum, kato'lik, prutistant, suryoniy va olti ming qadar yahudiy bo'lub, bu xalqning barchasi xoh musulmon va g'ayri- musulmoni arabiy so'ylaydurlar* kabi.

Mahmudxo'ja Behbudiy asarlari matnida ekspressivlik uchun xizmat qilgan poetik so'zlar ham uchraydi. Adib lug'atida izohlari berilgan bu til birliklarining ayrimlarini keltirib o'tamiz:

ashkrez – f. ko'z yosh to'kmoq: *Oh, na ruhoniy holatlar, na laziz vajdangiz ubudiyatlar, na ashkrez nozu niyozlar...*

beshak – shaksiz, shubhasiz: *Bul, albatta, beshak va shubha, muborak va yaxshi tarihdur va, lekin, ani ham birinchi saboq va ibtidoda daf'atan g'alati fahsh o'qiydurlar.*

ganj – f. xazina, kor, boylik: *Ganjlardan tashkil edilmish bir hay'at janob vakilni voqzalda istiqbol edarak shahara kelturdilar.*

guharvar – f.gavhar. qimmatbaho tosh.marvarid, gavharga xos: *Ichi bir necha tanob kelaturgan va irtifoi 30 gazdan ziyoda va ko'pi marmar stun va guharvar va oq va lohutnishon masna' mehroblar orasinda.*

dilgir – f. noxush, xafa, ko'ngli olingan, mahzun, jahli chiqqan, yuragi siqilgan: *“Oyina”ning xato va nomuloyim so'zlari tekkan va dilgir bo'lgan muhtaram kishilarga uzr aytib, afvlarini tilaymiz.*

Shuningdek, garchi ko‘p bo‘lmasa-da, Behbudiy tomonidan yasalgan okkazional so‘zlarga ham duch kelamiz. Masalan: *ovrupomijoz, korxonador, shariatshior, bog‘chador, kajmor, osonsur* va hokazo.

Shunday qilib, gap lug‘atshunoslik ustida ketar ekan, bu tizimda mualliflik leksikografiyasi alohida o‘rin tutishini qayd etish lozim.

Olib borilgan kichik bir tadqiqot nafaqat Behbudiy asarlari tilining leksik-semantik qatlamini osonlik bilan guruhlashga, o‘z davri jadid adabiyoti til tizimida faol bo‘lgan so‘z, qo‘shimcha va yordamchi vositalarni grammatik kategoriyalar doirasida birlashtirib o‘rganishga ko‘maklashdi.

Barcha ma‘rifatparvar o‘zbek jadidlarining ilmiy-badiiy-publisistik merosini lingvostatistik va leksikografik metodlarga tayangan holda o‘rganish ular ijodini lingvostilistik, lingvopoetik va lingvomadaniy tadqiq etishda eng ishonchli va samarali yo‘l ekanligi amalda namoyish etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-60-son, 28.01.2022.

2. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1973. –320 b.

3. Yo‘ldoshev B. Matnni o‘rganishning lingvostatistik metodlari. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2008. –90 b.

4. Behbudiy M. Tanlangan asarlar, ikki jildlik, 2 jild. – Toshkent: Akademnashr, 2018. –291 b.

5. Aslanova, H. (2020). The concept of features of «Beauty» in the creative heritage of Gadoi. JOURNAL of CRITICAL REVIEWS (ISSN-2394-5125. Vol 7. ISSUE 15.2020. SCOPUS Q4, 6 H index), 2672-2676.

6. Abduraximovna, A. H. (2021). REFLECTION OF MYSTICAL-EDUCATIONAL IDEAS IN GADOI LYRIC. Thematics Journal of Social Sciences, 7(5).

7. Abdurakhimovna, A. H. (2018). ACQUIRING PROFICIENCY IN CREATING SYMBOLS AND LITERARY ART IN GADOI'S POETRY. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych., 274.

8. Халова, М. А. (2021). Istiqlol davri she'riyatida ayollar obrazi. Международный журнал искусство слова, 4(2).

9. Холова, М. (2019). Рауф парфи шеърлари бадийяти. Иностранная филология: язык, литература, образование, 4(1 (70)), 67-70.

10. Rasulovna, S. D. (2021, December). Qisqalik–samarali tibbiy reklama yaratishning muhim omili. In Conferences.

11. Мамирова, Д. Ш. (2020). REKLAMA MATNLARINING TIL XUSUSIYATLARI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).

12. Каримова, С. (2021). Форс–тожик тилидаги янги адабиётда ҳиндий сабк. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (78)), 23-26.

13. Каримова, С. (2020). Зебуннисобегим шеърлятида бадий санъатлар. Иностранная филология: язык, литература, образование, (4 (77)), 18-22.